

**YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH:
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

Xushnazarov Asliddin Saloxiddin o'g'li

Adliya vazirligi, Yuridik xizmatlar faoliyatini
muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh maslahatchisi
asliddinxushnazarov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatini samarali tashkil qilish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan hamda mazkur faoliyatni takomillashtirishga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik xizmat, xorijiy tajriba, yuridik xizmatga oid talablar, yuridik xizmatga qabul qilish.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ УСЛУГ: ОПЫТ
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

Хушназаров Аслиддин Салохиддин угли

Министерство юстиции, Главный советник отдела координации юридических
услуг
asliddinxushnazarov@gmail.com

Аннотация: в статье анализируется опыт зарубежных стран по эффективной организации деятельности юридической службы государственных органов и организаций в Республике Узбекистан и даются предложения по совершенствованию этой деятельности.

Ключевые слова: юридическая служба, зарубежный опыт, требования к юридической службе, прием на юридическую службу.

**IMPROVING THE ACTIVITIES OF LEGAL SERVICES: THE
EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES**

Khushnazarov Asliddin Saloxiddin ugli

Ministry of Justice, Chief Advisor to the Department for Coordination of Legal
Services
asliddinkhushnazarov@gmail.com

Abstract: *this article analyzes the experience of foreign countries in the effective organization of the activities of the legal services of state bodies and organizations in the Republic of Uzbekistan and provides proposals for improving this activity.*

Keywords: *legal services, foreign experience, requirements for legal services, admission to legal services.*

Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ-2733-son "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qaror asosida qator yuridik xizmat sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar shakllantirildi.

Aynan ushbu qonunchilik hujjatlarining samarali ijrosi natijasida yuridik xizmat faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi hamda yuridik xizmat xodimlarining huquqlari, vazifa va funksiyalarni aniq belgilab berildi.

Shu bilan birga, yuridik xizmat sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida yuridik xizmat xodimlariga bir qator talablar ham qo'yildi. Yuridik xizmat xodimlarining lavozimga tayinlash va ozod etish masalalarini adliya organlari bilan kelishish tartibi, ularning stajirovkadan o'tishi, belgilangan muddatlarda malaka oshirishi hamda attestatsiyadan o'tishi shular jumlasidandir.

Biroq, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi rivojlangan sharoitida yuqoridagi kabi talablarga zarurat mavjudligi yuzasidan yuridik xizmat xodimlari tomonidan savollar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, yuridik xizmat xodimlarini lavozimga tayinlashni kelishish, malaka oshirish imtihoni hamda attestatsiyadan o'tish jarayonlari deyarli bir xil jarayon bo'lib, bu kabi protseduralarning ko'pligi yuridik xizmat xodimlarining ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, byurokratik to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunga ko'ra, mamlakatimizda yuridik xizmat sohasini yanada takomillashtirish, sifatli va professional yuridik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish va yuridik xizmat xodimi faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni maqbullashtirishda rivojlangan xorijiy davlatlarning yuridik xizmat sohasiga oid qonunchiligi hamda tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik xizmat sohasini tartibga solish bo'yicha bir qator xorijiy mamlakatlar amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur soha anchagina ixchamlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, **Buyuk Britaniyada** yuridik xizmat sohasini 1990-yilda qabul qilingan "Sudlar va yuridik xizmat" haqida qonun tartibga soladi.

Buyuk Britaniyada yuridik xizmatni "solisitorlar" (quyi daraja) hamda "barrisitorlar" (yuqori daraja) amalga oshiradi. 90 % solisitorlar o'z yuridik firmalarga ega bo'lib shartnoma asosida tashkilotlarga xizmat ko'rsatishadi. Angliya va Uelsda taxminiy 10 mingga yaqin shunday firmalar mavjud. Barrisitorlar esa asosan sud ishlari bilan shug'ullanishadi. Angliya va Uelsda taxminiy 6 mingga yaqin barrisitorlar mavjud. Yuridik mutaxassislik bo'yicha ta'lim olgan talabalar hech qanday to'siqlarsiz solisitor bo'lishlari mumkin (bizda kelishish prosedurasi bor). Boshqa mutaxassislik bo'yicha ta'lim olgan talabalar "Common Professional Examination – CPE" markazida 1 yillik ta'lim olib solisitor bo'lishlari mumkin.

Shuningdek, barcha solisitorlar 1 yillik “Law Society’s Finals Cours”da o‘qib, 7 ta yo‘nalish bo‘yicha imtixondan o‘tishlari kerak bo‘ladi. (bizdagi malaka oshirish hamda uning imtihoni). Bu ularga solisitor va barrisitor bo‘lishning keyingi darajasini beradi.

Bundan tashqari, barcha solisitorlarning yagona elektor reestri “Roll” (bizda ham xuddi shu kabi “Yurist-adliya” elektron bazasi bor) mavjud.

Jumladan, barcha solisitorlar Yuristlar jamiyati tashkilotidan 1 yillik muddatga ega setifikatga ega bo‘lishlari kerak (bizda attestatsiyadan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnoma 3 yilga beriladi). Bu ularning barcha jabhalarga javob beradigan yurist ekanliklarini kafolatlaydi.

2007-yilda qabul qilingan “Yuridik xizmatlar to‘g‘risida”gi qonunga asosan yuridik xizmat sohasini muvofiqlashtiruvchi “Yuridik xizmat ko‘rsatuvchi Kengash” “Legal Services Board” tashkil etilgan bo‘lib (bizda esa bu sohani adliya organlari amalga oshiradi), ushbu organ Adliya vazirligi tarkibiga kiradi va hech kimga bo‘ysunmaydi. Bu organ hozirgi kunda ham mavjud bo‘lib, 2010-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda.

Barrisitorlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida “Bar Standarts Board” (Barrisitorlar standartlarini belgilovchi Kengash) tashkil etilgan.

Shu bilan birga, 2014-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan “solisitorlar” (quyi daraja) hamda “barrisitorlar”ning (yuqori daraja) qo‘shma organi “Joint Academic Stage Board” ham mavjud. Bu organ “solisitorlar” va “barrisitorlar”ni baholash vazifasini bajaradi.

Germaniyada yurisprudensiya ta’lim yo‘lashini 4 yil o‘qib, mazkur yo‘nalishni tamomlagan talabalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yurist bo‘lish imkoni

beriladi. Huquqning qolgan sohalarda ishlash niyati bo'lgan talabalar 2 yillik amaliyotdan o'tgandan so'ng, ikkinchi imtihon topshirishlari lozim. Shundagina talabalar sud, prokuratura, advokatura va boshqa organlarda ishlashlari mumkin.

Germaniyada ta'limning yuridik sohasi 2 ta bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich, bu (Studium), ikkinchi bosqich esa 2 yillik amaliyot bo'yicha (Referendariat). Bu ikkala bosqichni tugatgan talabalar, birinchi davlat imtihonidan o'tishlari kerak.

Ikkinchi davlat imtihoni "Zweite Staatsexamen" deb ataladi (bizdagi yuridik xizmat xodimlarining attestatsiyasiga o'xshash). Ikkinchi davlat imtihonidan o'tgan talabgorlar yuridik xizmat xodimi sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

Fransiyada Germaniyadan farqli o'laroq, ikkinchi davlat imtihoni yurist bo'lish yoki advokat bo'lish imkoniyatini bermaydi. Buning uchun ular yana qo'shimcha ravishda o'qishlari zarur. Sohoni tartibga soluvchi yagona bir hujjat mavjud emas. Har bir yo'nalish bo'yicha alohida hujjat chiqarilgan.

Fransiyada yuridik xizmat ko'rsatadigan ikki xil toifadagi xodimlar mavjud. Bular: sollisitorlar, barrisitorlar hamda barrisitorlar kengashi.

Sollisitorlar sudlarning birinchi instansiyasida, barrisitorlar sudlarning apellyasiya ishlarida, Kengash esa kassatsiya ishlarida qatnashadilar.

Davlat boshqaruvi organlari (mahalliy, milliy organlar, vazirliklar, idoralar va boshqalar) o'zlarining yuridik xizmatlariga ega. Ular qonunchilik doirasida mazkur organlar faoliyatini yuritishga yordam berish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish, davlat manfaatiga zid huquqiy hujjatlar tuzilishining oldini olish uchun ekspert-huquqiy yordam ko'rsatadi.

Amerikada ham mazkur sohani tartibga soluvchi yagona bir hujjat mavjud emas. Sohalariga qarab alohida-alohida hujjatlar chiqarilgan.

Amerikada yurist maqomiga ega bo'lish uchun bitiruvchilarga litsenziya kerak bo'ladi. Yurist bo'lish uchun bir qancha bosqishchlardan o'tish lozim.

Xususan, birinchi bosqich – oliy yuridik ma'lumot. Oliy yuridik ma'lumot beruvchi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bir vaqtda talabalar yurist yordamchisi (paralegal) bo'lib ishlashi mumkin. Yurist yordamchilari faoliyatini Paralegal assotsiatsiyasi muvofiqlashtirib turadi. Yurist yordamchisi bo'lish kelajakda yetuk yurist bo'lish uchun katta amaliyotni beradi.

Shu bilan birga, Amerikada federal miqyosda katta siyosiy kuchga ega bo'lgan Amerika yuristlar assotsiatsiyasi (American Bar Association ABA) mavjud.

Ushbu tashkilot advokatlar assotsiatsiyasi hamda mahalliy yuristlar assotsiatsiyasini birlashtirib turadi.

Ikkinchi bosqich – yuridik maktabga kirish. Mazkur maktablarga kirish uchun talabgorlar LSAT imtihonini topshirish zarur.

Uchinchi bosqich – advokatlik litsenziyasini olish.

Kanadada yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi 2000-yilda qabul qilingan “Yuridik kasb” to'g'risidagi qonun mavjud.

Mazkur davlatda Britaniyanikiga o'xshash yuridik xizmat tizimi mavjud bo'lsada, ularning ishlash prinsipi har xil bo'lib, sollisitorlar va barrisitorlar birlashtirilgan. Ular o'zlarini “Sollisitorlar va barrisitorlar” deb atashadi.

Yuridik xizmat xodimi bo'lish uchun qoidalar Amerikanikiga o'xshash.

Rossiyada yurist bo'lish uchun sertifikat talab etiladi. Sertifikat olish uchun yuristlar o'z malakasini test hamda kazuslarni hal qilish metodlaridan foydalangan holda aniqlashadi.

Savollar quyidagi huquq sohalari bo'yicha tayyorlanadi. Jumladan, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, fuqarolik-protsesual huquqi, mehnat huquqi, konstitsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, jinoyat protsesual huquqi.

Sertifikat olish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Hujjatlarni qabul qilish.
2. Test hamda kazuslarni yechish.
3. Sertifikat berish qaroriga kelish (sertifikat Rossiya yuristlar assotsiatsiyasi tomonidan beriladi mohiyatan bizdagi hozirgi attestatsiya jarayonlari).

Xususan, mazkur xorijiy davlatlar tajribalari asosida amaliyotdagi mavjud muammolarni tahlil qilgan holda yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlashni kelishish hamda attestatsiyadan o'tkazish jarayonlarini birlashtirib, sertifikat berish amaliyotini joriy etishni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Bunda sertifikat yuridik xizmat xodimi malakasini oshirgandan keyin tashkil etiladigan uch bosqichli imtihon natijasiga ko'ra beriladi. Sertifikat olingan ballariga qarab turli darajada beriladi (xuddi IELTS – inglizzabon mamlakatda ta'lim olmoqchi, immigratsiya qilmoqchi yoki amaliyot o'tamoqchi bo'lgan kishilar uchun bo'ldigan test sinovi kabi). Qonunchilikka sertifikatsiz ishlashni taqiqlashga oid normalar kiritiladi hamda kelishish tartibi xabardor qilish tartibiga almashtiriladi.

Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat olib borgan yuridik xizmat xodimlarini adliya organlarida stajirovkadan o'tishini bekor qilish masalasini ham o'rganib chiqish lozim.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asosan aytish mumkinki, yuridik xizmat faoliyatini tashkil qilishga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish va qiyoslash mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishda hamda yuridik xizmat tomonidan tashkilotlar faoliyatini samarali huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi PQ–2733-son “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-3098964>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ–5168-son “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5482934>.


3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 22-noyabrdagi 244-son “Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-1274006>.

4. [Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish hamda birinchi marta yuridik xizmat xodimi lavozimiga tayinlangan shaxslarning adliya organlarida stajirovkadan](#)

ZAMONAVIY HUQUQSHUNOSLIKNING AKTUAL MUAMMOLARI

XVI-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI



Issue - 4(2025)

Available at www.uznauka.uz

[o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom \(ro'yxat raqami 3444, 2023-yil 5-iyul\) // URL:
https://lex.uz/uz/docs/-6523027.](#)